

## **PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Ustamova Nodira Maxmaraimovna  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Pedagogika nazariyasi va tarixiyo ‘nalishi 2-kurs magistranti  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.064>*

*Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish, o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lishi, darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi va yangi g‘oyalarni ta‘lim jarayonida sinab ko‘rishi hamda bo‘lajak pedagog kreativlik yo‘l xaritasiga ko‘ra ish yuritishi, tafakkurining tezkorligi va egiluvchanligi, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilish hamda zakovatli bo‘lishi kabi xususiyatlari, shuningdek, eksperimentlar jarayonida bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllanganlik darajasini aniqlash uchun joriy nazoratlar o‘tkazilishi, bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta‘lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda pedagogik shart-sharoitni aniqlashga qaratilgan.*

*Tayanch so‘z va iboralar: kreativ fikrlash, raqamli boshqaruв, tafakkurni shakllantira olish, ijodkor bo‘lish, darslarni kreativlik ruhida tashkil etishi, kreativlik yo‘l xaritasiga ko‘ra ish yuritishi, tafakkurining tezkorligi va egiluvchanligi, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, raqamli ta‘lim muhitida ishlash.*

## **IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES OF FUTURE EDUCATORS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY**

*Ustamova Nodira  
Shahrisabz State Pedagogical Institute 2nd year master in the field of  
theory and history of pedagogy*

*Abstract: this article will teach future educators to creative thinking, to be able to form creative thinking in them, the teacher himself should be creative, creative, organize lessons in the spirit of creativity, creativeness and test new ideas in the educational process, and the future educator should work according to the creativism road map, be quick and flexible in his thinking, the ability to create new ideas, not thinking in one mold, personality, initiative, tolerance of uncertainty, as well as, in the process of Expositions, the transfer of current controls to determine the level of formation of important professional qualities of future educators for working in the digital educational environment, aimed at determining pedagogical conditions in the formation of important professional qualities of future educators for working in the digital educational environment.*

*Key words: creative thinking, digital management, being able to shape thinking, being creative, organizing classes in the spirit of creativity, doing business according to the creativity roadmap, speed and flexibility of thinking, originality, initiative, working in a digital educational environment.*

## **ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ БУДУЩИМИ ПЕДАГОГАМИ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Устамова Нодира Махмараимовна  
Магистрант 2 курса по специальности «Теория и история педагогики»  
Шахрисабзского государственного педагогического института*

*Аннотация: в этой статье рассказывается о том, как научить будущих педагогов*

*мыслить креативно, развить у них креативное мышление, учитель должен сам быть креативным, креативным, организовывать занятия в духе творчества, креативности и пробовать новые идеи в образовательном процессе, а будущий педагог должен руководствоваться дорожной картой креативности, быстротой и гибкостью мышления, способностью генерировать новые идеи, быть нестандартным мышлением, оригинальностью, инициативностью, терпимостью к неопределенности и интеллектом, а также, проведение текущих проверок с целью определения уровня сформированности значимых профессиональных качеств будущих педагогов по работе в цифровой образовательной среде в процессе экспериментов направлено на выявление педагогических предпосылок формирования значимых профессиональных качеств будущих педагогов по работе в цифровой образовательной среде.*

*Ключевые слова: креативное мышление, цифровое управление, умение формировать мышление, быть креативным, организовывать уроки в духе креативности, действовать в соответствии с дорожной картой креативности, быстрота и гибкость мышления, оригинальность, инициативность, работа в цифровой образовательной среде.*

Respublikamizda bugungi kunda vujudga kelgan shart-sharoitlar bo'lajak pedagoglarning malakasini oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

Ayni vaqtda vujudga kelgan shart-sharoitlar bo'lajak pedagoglarning malakasini oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni, 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-sonli qarori ijrosini taminlash orqali oliy ta'lim muassasalari bo'lajak pedagoglarning malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy sifatlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.

Jumladan, bo'lajak pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas holda faoliyat yuritishlari, har tomonlama shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa pedagog-o'z yo'nalishining mohir ustasi, o'z fanini chuqur anglagan uning muammolarini baratarf etish yo'lida izlangan, nazariyani amaliyotga tadbiiq etadigan, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishini talab qiladi.

Kasbiy-faoliyatli yondashuv bo'lajak pedagogning raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda kasbiy faoliyatdagi resurslar, sharoitlar va harakatlar zanjirini aniqlashtiradi. Kompetentli yondashuv esa raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish ta'lim metodlari, izlanishlar, analiz va sintez vositalarini ishlab chiqish usullari to'plamini aniqlaydi. Bu yondashuvda bo'lajak pedagoglarning raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha qobiliyatlarini belgilaydi.

Raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta'limning tashkiliy shakllari muhim rol o'ynaydi..

Barcha fan yo'nalishlarida, ma'ruza, seminar, laboratoriya, mustaqil ish, ilmiy-tadqiqot, amaliy mashg'ulotlar va darslardan tashqari mashg'ulotlar-bular mashg'ulot turlari bo'lib, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazishda guruxiy, kichik guruxlarda ishlash, juftlikda va individual ishlash shakllarining to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz mashg'ulotlarni raqamlashtirish ta'lim muhitida qanday tashkil qilish to'g'risida to'xtalamiz.

1.On-line ma'ruzlar. Ma'ruza mashg'ulotlari "On-line" ma'ruza ko'inishida o'tkazish orqali nazariy o'quv materialini hajmini oshirish, boshqa universitetlar olimlarini jalb qilish, ma'ruza o'tish vaqtini erkin belgilash, taqdimotlar va illyustratsiyalarini taqdim etish imkoni yaratiladi. Ma'ruzalarni video fayl shaklida platformaga joylashtirish mumkin.

2.Seminar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya mashg‘ulotlarini “On-line” kurslar, “On-line” treninglar, vebinar, “On-line” laboratoriya shaklida o‘tish imkonini yaratadi. Shuningdek, laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual stendlar orqali o‘tkazish orqali talabalarga murakkab texnologik ob’ektlar va jarayonlar haqida real tasavvur hosil qilishi mumkin.

3.Mustaqil ishlash talabaning masofadan turib biron bir topshiriqlarini metodik yordamini maslahat ko‘rinishida bajarish jarayonidir. Topshiriqlar pedagog yordamisiz ham talaba tomonidan mustaqil bajarilishi mumkin.

Talabalarni mustaqil ishlashga faolligini oshirish uchun quyidagi ta’lim metodlarini va shakllarini qo‘llash talab etadi.

- Moodle maxsus platforma orqali “On-line” o‘qitishni kiritish;
- Google, HTMIS, On-line Dokument hujjatlari bilan ishlash;
- Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash (Telegram, Instagram, Face book);
- On-line so‘rov (Tovushli, test);
- Interaktiv grafiklar va jadval bilan ishlash.
- On-line monitoring platformalari bilan ishlash.
- Ta’limiy saytlar bilan ishlash.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlari bu dastlabki malakalarni shakllantiradigan ta’lim shakli hisoblanadi. Talabalarda ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish quyidagi mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi.

-Ilmiy amaliy konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarda.

-Kichik guruhlarda hamkorlikda loyihalarni bajarish, laboratoriya mashg‘ulotlari, guruhiy ilmiy izlanishlar.

-Kurs ishi, referat, ma’ruza, va ijodiy topshiriqlarni bajarish.

O‘qitishning ta’limiy shakllari orqali raqamlashtirish ta’lim muhitida yaratish ta’lim jarayonida o‘zgartirishlarni talab etiladi. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarni raqamli ta’lim muhitida ishlashga o‘rgatish ta’limni yangi sifat darajasiga ko‘taradi. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish quyidagi texnologiyalar orqali amalga oshiriladi: loyihali, muammoli, faol, elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalari shular jumlasidandir. Raqamli ta’lim muhitida o‘quv-kasbiy faoliyatni maqsadi va mazmunini loyihalash quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1.Ilmiylik-raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni tayyorlashda o‘quv predmeti va ilmiylik orasidagi bog‘liqlik o‘rnatish.

Bunda quyidagi talablar qo‘yiladi:

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogika fani nazariyasi va qonunlari tushunchalari va ilmiy dalillar bilan talabalarni tanishtirish;

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogika ilmi texnologiyalari va metodlarini o‘rganish;

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida kasbiy masalalarni echishda ilmiy dalillar, qonunlar va nazariyalardan foydalanish.

-On-line dasturlar bilan ishlash, kerakli ma’lumotlarni izlab topishi va keraklisini tanlash, adabiyotlarni tahlil qilish, taqdimotlar va ilmiy maqolalar tayyorlash.

2 Yaxlitlik. Raqamli ta’lim muhitida nazariy va amaliy integratsiyasini ta’minlash.

Bunda quyidagi talablar bajarilishi kerak.

-Raqamli ta’lim muhitida kasbiy masalalarni echish masalasi shakllantiriladi.

-Raqamli ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga amalga oshirish ritmi bo‘yicha tayyorgarligini ta’minlash.

-Raqamli ta’lim muhitida ta’lim tizimiga yangi talablar kiritiladi.

-Bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta’lim muhitida kasbiy pedagogik faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha o‘z-o‘zini rivojlantirishi.

3.Raqamli ta’lim muhitini yaratish orqali o‘quv tabiiy jarayonida shaxsga kompleks ta’sirini tashkil qilish.

Bundan quyidagi talablarni bajarish lozim:

-Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirilishi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

-Dars va darsdan tashqari faoliyatda talabalar bilan olib boriladigan kompleks tadbirlar.  
-Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarda muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish darajasini aniqlash bo'yicha kompleks tadbirlar.

4 Tizimlilik. Raqamli ta'lim muhitida ishlash sharoitida pedagogik nazariya bilan amaliyoti orasida aloqadorlikni o'rnatish.

Bunda-nazariy va amaliy o'quv materialining mantiqiy ketma ketlikda tuzilishining bayon etilishi, nazariy va amaliy mashg'ulotlarini orasidagi integratsiya o'rnatilishi lozim.

5 Kasbiy pedagogik faoliyatlilik.

Bu tamoyilga diagnostika, tashxislash, monitoring, loyihalash, dasturlash kiradi.

Xulosa qilib aytganda pedagoglik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki, kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo'yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo'ladi. Bo'lajak pedagoglar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qarotilishi zarurdir.

Bizni fikrimizcha raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlar - raqamli ta'lim muhitida pedagog faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompleks sifatlar majmuidir. Bo'lajak pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish-bu ta'lim jarayoni sub'ektlarining maqsadga yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik faoliyat bo'lib, raqamlashtirish sharoitida o'quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmunini loyihalash hamda bo'lajak pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishni ta'minlashga yo'naltiriladi. Bo'lajak pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonining asosiy komponentlariga ijtimoiy pedagogik, motivatsion-emolsional, gnostik, madaniy-ma'rifiy, loyihalash, raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonlik ekanligi asoslab berildi.

Bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari qilib motivatsion ehtiyojli, gnostik, jarayonli va o'z-o'zini baholash guruxlari tanlanib har bir mezon ko'rsatkichlari belgilandi. Biz tomondan ishlab chiqilgan mezonli baholash apparati asosida izlanishlar doirasida bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarining past darajada ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. SH.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.

2.SH.M.Mirziyoyev «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-sonli qarori 2019 yil 11 iyul.

3.Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). Pedagogical and psychological fundamentals of formation of space imagination and creative ability in students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 38-40.

4.Mavlonov A. Barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 150 b.

5.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000. – 46 b.

6.Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /Seminar trening materiallari (trenerlar uchun qo'llanma). – T.: O'MKHTM, 2002. – 181 b.

7.A.R. Sakhilov. «Modern methodological bases of higher education management in the era of digitization» Educational and innovative studies. International scientific and methodical magazine. 2022 No. 10 pp. 169-176.

8.A.R. Sakhilov. «Innovative competences of the heads of higher education institutions and the main directions of their development» «Pedagogical skills» scientific-theoretical and methodical magazine. 2022, No. 5. Bukhara. Bukhara 2022. S. 23-28.

9.A.R. Sakhilov. «The role of foreign experiences in the innovative management of the modern higher education system». Education and innovative research. International scientific-methodical magazine. 2023 No. 6, pp. 254-262.

10.Soxilov A.R.-"Ta'limning interfaol usullari". O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi-2020.-175 b.